Annotatsiya: Maqolada yashil iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari ko'rib chiqilib, barqaror iqtisodiy o'sish va rivojlanishni ta'minlashda atrof-muhitga bo'lgan ta'sirni o'ziga xos “ekologik yo'lak” doirasida amalga oshirish zarurligi ilmiy asoslangan. Ekologiya – bu iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, insoniyat faoliyati bevosita unga bog'liq ekani ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: ekologiyalashtirish, noosfera, ekologik yo'lak, ekologik barqarorlik, ekologik xavf, energiya samaradorligi, bioiqtisodiyot, ehtiyotkorlik tamoyili, ekologik qonunlar.

Abstract: This article examines the key features of the green economy and substantiates the necessity of implementing environmental impact measures within a unique "ecological corridor" to ensure sustainable economic growth and development. From a scientific standpoint, it is argued that ecology is inherently linked to the economy and that human life activity directly depends on it.

Key words: greening, noosphere, ecological corridor, environmental sustainability, environmental risk, energy efficiency, bioeconomy, precautionary principle, environmental legislation.

Аннотация: В статье рассматриваются основные характеристики зелёной экономики и обосновывается необходимость осуществления воздействия на окружающую среду в рамках своеобразного "экологического коридора" для обеспечения устойчивого экономического роста и развития. С научной точки зрения доказывается, что экология – это неотъемлемая часть экономики, а жизнедеятельность человека напрямую зависит от неё.

Ключевые слова: экологизация, ноосфера, экологический коридор, экологическая устойчивость, экологический риск, энергоэффективность, биоэкономика, принцип предосторожности, экологическое законодательство.

KIRISH

Hayotimizning barcha jabhalarini, butun taraqqiyot va iqtisodiyotni “ekologiyalashtirish” – bugungi kunda shunchaki insonparvarlik chaqirig'i emas, balki inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarda uyg'unlikni ta'minlash zaruratini chuqur anglash natijasidir.

Inson o'zining aql-idroki va texnik imkoniyatlari sababli go'yoki tabiatdan ajralgandek bo'ldi va boshqa tirik mavjudotlar imkoniyatlarini cheklovchi tabiiy kuchlardan nisbatan mustaqil bo'la oldi. Biroq zamonaviy tarix bu fikrning asossizligini yaqqol ko'rsatdi. Rivojlanishning bunday yo'li inson va tabiatning uyg'un evolyusiyasini izdan chiqarib, uni ekologik halokatlar zanjiriga aylantirish xavfini tug'dirmoqda.

Shu sababli, insonning atrof-muhit bilan uyg'un munosabatlarga qaytishi muhim zaruratga aylandi. Inson hanuzgacha biosferaning bir qismi bo'lib qolmoqda va o'zining uzoq muddatli farovon yashashi va rivojlanishi uchun ehtiyojlarini sayyoramizning tabiiy imkoniyatlariga muvofiq tarzda shakllantirishi zarur. Bu esa noosferaviy rivojlanishni – ya'ni aql-idrok asosidagi rivojlanish modelini – nazarda tutadi. Bunday modelda insoniyat o'zini o'rab turgan muhit bilan munosabatlarni ongli ravishda tartibga soladi va o'z evolyusiyasini o'zi boshqaradi. Bu g'oyalar, avvalo, akademik V.I. Vernadskiy nomi bilan bog'liq.

Noosferaviy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan birinchi jiddiy harakat – hozirgi kunda jahon hamjamiyati tomonidan insoniyatning barqaror kelajagini ta'minlovchi asosiy yo'l sifatida e'tirof etilgan barqaror rivojlanish konsepsiyasi hisoblanadi. Mazkur konsepsiyani amalga oshirishning asosiy mexanizmi sifatida “yashil iqtisodiyot” modeli taklif etilmoqda.

Haqiqiy noosferaga yetib borish uchun insoniyat o'z faoliyatini ekotizimlar va butun biosferaning murakkab muvozanat mexanizmlariga moslashtirishi lozim. Endilikda iqtisodiy rivojlanish jarayoni tor “ekologik yo'lak” doirasida amalga oshirilishi kerak. Shu bois, yaqin-yaqingacha o'zgarmas haqiqat sifatida qaralgan “avval iqtisodiy o'sish, keyin ekologik muammolar yechimi”, “inqirozdan chiqqach, ekologiyaga e'tibor berish kerak” kabi da'volar tubdan qayta ko'rib chiqilishi lozimligi tan olinmoqda.

Dunyo miqyosida bo'lgani kabi, O'zbekiston oldida ham zamonaviy vazifalar turibdi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirish zarurati bevosita barqaror rivojlanishga erishish



bilan bog'liq. Bu esa "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini amaliyotga joriy qilishni, ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarini ekologik standartlarga muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – "yashil iqtisodiyot" shakllanish jarayonidagi o'ziga xos jihatlar va asosiy xususiyatlarni tahlil qilishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Global ekologik muammolar hamda iqtisodiyotni "ekologiyalashtirish" masalalari yuzasidan tadqiqotlar XX asrning 1970–1980 yillaridan boshlab ko'plab g'arb olimlari, shuningdek, sobiq Sovet Ittifoqi olimlari tomonidan olib borilgan. Bu borada akademik V.I. Vernadskiyning quyidagi fikrlari alohida ilmiy va konseptual ahamiyat kasb etadi: "Inson o'zining aql-idroki va texnik mukammalligi bilan boshqa turdagi tirik mavjudotlarning imkoniyatlarini qat'iy tartibga soluvchi tabiiy kuchlardan sezilarli darajada mustaqil bo'la oldi, u tabiatdan ajralib chiqdi va o'z faoliyati bilan unga salbiy ta'sir ko'rsatishni boshladi."

Haqiqatan ham, o'sha davrda – SSSRda ham, ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda ham – Ikkinchi jahon urushidan so'ng asosan ekstensiv iqtisodiy o'sish modeli qo'llanilgan edi. Bu model, o'z navbatida, global miqyosda atrof-muhitga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi va jiddiy ekologik muammolarni yuzaga keltirdi.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar S.N. Bobilev va V.M. Zaxarov o'zlarining "Krizis: ekonomika i ekologiya" nomli risolasiida quyidagicha fikr bildiradilar: "Faqat XX asrning o'zida ijobiy iqtisodiy niyatlar va ularning salbiy ekologik oqibatlarini o'rtasidagi tafovut ko'plab hollarda iqtisodiy natijalarni yo'qqa chiqargan. Masalan, AQShda eroziya natijasida o'n millionlab gektar qishloq xo'jalik yerlarining nobud bo'lishi, Buyuk ko'llarning ifloslanishi ularni tozalash uchun o'nlab milliard dollarlik xarajatlarni talab qilgan. Sobiq SSSRda esa yirik ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar – Orolbo'yi hududini sug'orish, Sibir va Qozog'istonning qo'riq hamda bo'z yerlarini o'zlashtirish – nihoyatda katta ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy zararlar keltirib chiqargan."

O'zbekistonlik taniqli iqtisodchi olim, professor A.V. Vaxobov o'zining "Yashil iqtisodiyot konsepsiyasini amalga oshirishning xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari" nomli ilmiy maqolasida mamlakatimizda mavjud ekologik muammolarni chuqur tahlil qilgan va ularni bartaraf etish bo'yicha qator ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda global miqyosda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonlari bilan bog'liq kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil va umumlashtirish, guruhlash, qiyosiy tahlil, monografik kuzatish, tizimli yondashuv kabi ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida kompleks yondashuv qabul qilindi, bu esa ekologik va iqtisodiy omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilishga imkon berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda salbiy ekologik tendensiyalarning saqlanib qolishi juda xavfli oqibatlarga olib kelishi muqarrar bo'lib turibdi. Hozirgi vaqtgacha amalda bo'lgan iqtisodiy model doirasida sayyora aholisining ortib borishi biosferaning halokatiga olib kelishi mumkin. Prognozlarga ko'ra, 2040-yilga kelib yer yuzi aholisi 8 milliarddan 9 milliard kishigacha ko'payadi. Shu bilan birga, o'rta sinf iste'molchilarining soni kelgusi 20 yil ichida 3 milliardga oshishi, barcha resurslarga bo'lgan talab esa geometrik progressiya asosida ortib borishi kutilmoqda.

Xususan, 2030-yilga borib dunyo aholisining:

- oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoji – 50 foizga;
- energiyaga – 45 foizga;
- suv resurslariga – 30 foizga ortadi.

Bularning barchasi ekstensiv iqtisodiy o'sishga yangi va jiddiy cheklovlar qo'yadi.

Insoniyat va iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi yo'llarini ishlab chiqish zarurati jahon hamjamiyati tomonidan allaqachon e'tirof etilgan. 1980-yillarning oxiri – 1990-yillarning boshlarida rivojlanishning an'anaviy modelini o'zgartirish ehtiyoji jamiyat va iqtisodiyotni baholashda yangi konseptual va metodologik yondashuvlarni shakllantirdi. Bu davrda BMT doirasida ikki muhim nazariy yo'nalish ishlab chiqildi: barqaror rivojlanish (Sustainable Development) va inson salohiyatini rivojlantirish (Human Development).

Insoniyat taraqqiyoti uchun ekologik muammolarni hal qilish zarurati BMT tomonidan qabul qilingan 2000–2015-yillarga mo'ljallangan "Mingyillik rivojlanish maqsadlari" (Millennium Development Goals) da o'z aksini topgan. Ushbu maqsadlardan biri – ekologik barqarorlikni ta'minlashdir. Keyinchalik, 2015-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan BMT sammitida yangi kun tartibi – Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals) qabul qilindi. Ushbu maqsadlar 2016–2030-yillarda jahon mamlakatlari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.



BMT ma'ruzalari ta'riflarida "yashil iqtisodiyot" – bu insonlarning farovonligini oshiradigan va ijtimoiy adolatni ta'minlaydigan, shu bilan birga atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirni va degradatsiyani sezilarli darajada kamaytiradigan iqtisodiy model sifatida tavsiflanadi.

"Yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- tabiiy resurslardan samarali foydalanish;
- tabiiy kapitalni saqlash va ko'paytirish;
- ifloslanishni kamaytirish;
- kam uglerodli iqtisodiy modelga o'tish;
- ekotizim xizmatlarini saqlash;
- bioxilma-xillikni asrash;
- daromad va bandlikni oshirish.

Shuningdek, "yashil iqtisodiyot"ga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- ekologik barqarorlik va iqtisodiyotning "yashillashtirilishi";
- ijtimoiy yo'naltirilganlik;
- maksimal tarkibiy va hududiy qamrov;
- tabiiy ne'matlarning qiymatini oshirish;
- bilimga asoslangan rivojlanish;
- ekologik xavflarni minimallashtirish;
- innovatsionlik;
- energiya samaradorligi va kam uglerodli texnologiyalar;
- oqilona iste'mol va ishlab chiqarish modellari;
- taraqqiyotni baholashda yangi indikatorlar va yondashuvlar.

"Yashil" iqtisodiyot va barqaror rivojlanishning asosiy elementlari

2030-yilgacha bo'lgan davr uchun global kun tartibini shakllantirishda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning majburiy elementlari BMT Bosh kotibining 2015-yildan keyingi davrda barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi bo'yicha umumlashtiruvchi ma'ruzasida bayon etilgan (BMT Bosh Assambleyasining 69-sessiyasi, 2014-yil 4-dekabr). Ular quyidagicha ifodalangan:

- Odamlar – ayollar va bolalar uchun sog'lom hayot kechirish, ta'lim olish va faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish;

- Sayyora – ekotizimlarni hozirgi va kelajak avlodlar manfaatida saqlab qolish;
- Qadr-qimmat – qashshoqlikni tugatish va tengsizlikka qarshi kurash;
- Farovonlik – inklyuziv, barqaror va shaffof iqtisodiyotni barpo etish;
- Adolatli boshqaruv – tinchlik va xavfsizlikni ta'minlovchi samarali institutlarni rivojlantirish;
- Hamkorlik – barqaror rivojlanish yo'lida global birdamlikni kuchaytirish.

Shu nuqta nazardan, "yashil iqtisodiyot" barqaror rivojlanishning har bir asosiy elementini amalga oshirish uchun poydevor vazifasini bajaradi, deb qaralmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi barqaror rivojlanish konsepsiyasining o'rnini egallamaydi. Biroq hozirgi sharoitda barqarorlikka erishish deyarli to'liq tarzda "to'g'ri iqtisodiy model", ya'ni ekologik jihatdan mas'uliyatli va resurslarni tejovchi iqtisodiyotni shakllantirishga bog'liq.

So'nggi o'n yilliklarda insoniyat an'anaviy "jigarrang iqtisodiyot" modeli asosida iqtisodiy o'sish va boylikni ta'minladi. Endilikda esa, barqarorlikka erishish global ustuvor maqsad bo'lib qolmoqda. Bu esa jahon iqtisodiyotini ekologik tamoyillar asosida "yashillashtirish" zaruratini keltirib chiqarmoqda.

BMT tomonidan taklif etilgan majburiy elementlar barqaror rivojlanish yo'lida chuqur transformatsiyaga xizmat qiluvchi universal, kompleks va tizimli yondashuv asosida shakllantirilgan. Ular quyidagilardir:

- Aholi farovonligini oshirish va qashshoqlikni bartaraf etish – bu barqaror rivojlanish kun tartibining eng muhim tarkibiy qismidir.

- Kuchli, inklyuziv va transformatsion iqtisodiyotni shakllantirish – iqtisodiy o'sish orqali umumiy farovonlikka erishish maqsad qilinadi.

- Xotin-qizlar va bolalar uchun sog'lom hayot, sifatli ta'lim va teng imkoniyatlar yaratish – bu ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash omilidir.

- Ekotizimlarni saqlash – bu iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning yo'qolishi, cho'llanish va er resurslarining samarasiz ishlatilishiga qarshi kurashni nazarda tutadi.

- Tinch-totuv yashashni rag'batlantirish va kuchli institutlarni barpo etish – barqaror boshqaruv mexanizmlarini mustahkamlash orqali amalga oshiriladi.

- Global hamkorlikni safarbar etish – bu Mingyillik deklaratsiyasi (2000-yil) va 2030-yil kun tartibi tamoyillari asosida amalga oshirilishi lozim.

Yashil investitsiya sohalari (YuNEP tavsiyasi asosida)



Iqtisodiyotni “yashillashtirish” maqsadida BMTning Atrof-muhit dasturi (YuNEP) quyidagi 10 ta ustuvor sohaga sarmoya kiritishni tavsiya etgan:

1. Qishloq xo'jaligi
2. Binolarni issiqlik va yoritish tizimlari
3. Energiya ta'minoti
4. Baliqchilik sohasi
5. O'rmon xo'jaligi
6. Sanoat
7. Turizm
8. Transport
9. Chiqindilarni boshqarish
10. Ichimlik suvi va suv resurslari
11. Energetika sektori (shu jumladan qayta tiklanuvchi energiya manbalari)

Iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan energetika sohasi atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi va qo'riqlanadigan yerlarning degradatsiyasiga eng katta hissa qo'shmoqda. Bunday holat, ayniqsa energiya resurslari zaxiralari kam yoki umuman yo'q bo'lgan dunyoning ko'plab mamlakatlariga xos emas. Shu sababli, yashil iqtisodiyotning hududiy va tuzilmaviy-texnologik ko'lami dolzarb masala sifatida ko'riladi.

Yashil iqtisodiyot faqat global miqyosda muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Faqat rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ekologiyalashtirish jarayonlari yakuniy natijada dunyoning asosiy iqtisodiyotlariga ta'sir ko'rsatmasdan samarali bo'lishi mumkin emas. Masalan, rivojlangan davlatlar kam uglerodli iqtisodiyotga o'tishda qanchalik katta sa'y-harakatlar amalga oshirmasin, issiqxona gazlarining eng yirik emitentlari – Xitoy, Hindiston va Rossiya bilan muvofiqlashtirilmagan holda global iqlim tizimidagi buzilishlarning oldi olinmaydi. Shunday qilib, sayyoramiz biosferasiga bog'liq global ijtimoiy ne'matlarni himoya qilish uchun insoniyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari muhim hisoblanadi.

Ko'pgina davlatlar inqirozga qarshi dasturlarni faol ishlab chiqmoqdalar va ularning asosiy komponentlaridan biri – ekologik omillardir. “Yigirmatalik” davlatlari iqtisodiyotni rag'batlantirish bo'yicha qabul qilgan choralar paketida ajratilgan 3,3 milliard AQSh dollarining qariyb 16 foizi yashil investitsiyalarga yo'naltirilmoqda. AQShda qabul qilingan qonunga ko'ra, federal hukumat “yashil” biznesda innovatsiyalarni va o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun 90 milliard AQSh dollari sarmoya kiritishi kerak.

Skandinaviya davlatlari esa iqtisodiyotni ekologik jihatdan mos texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sohalar foydasiga tubdan qayta tashkil etish yo'lga o'tmoqda. Inqiroz sharoitida bunday qayta tuzilish ekologik jihatdan ilg'or faoliyat turlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshirilmoqda.

Yaqinda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari 2020-yilga kelib issiqxona gazlari chiqindilarini 20 foizga kamaytirish, energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 20 foizga yetkazishni nazarda tutgan 20:20:20 strategiyasini ishlab chiqdi. Ushbu strategiya Yevropa iqtisodiyotida muhim o'zgarishlar yasadi va hozirgacha samarali natijalar bermoqda. Masalan, Germaniyada qayta tiklanuvchi energiya manbalari orqali ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi umumiy ishlab chiqarishning 28 foizini tashkil qilmoqda. AQSh esa 2050-yilga kelib chiqindilarni 50 foizga, 2080-yilgacha esa 80 foizga kamaytirishni maqsad qilgan.

Yashil iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri – bioiqtisodiyot – tobora rivojlanmoqda. Bioiqtisodiyot atamasi 2000-yillarning boshlaridan boshlab keng ommalasha boshladi. O'shanda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) hamda Yevropa komissiyasi (YK) ilmiy-texnik taraqqiyot va iqtisodiy o'sish uchun biotexnologiyalar, biologik materiallar (genlar, ildiz hujayralar, to'qimalar) va tabiiy resurslar (o'rmonlar, qishloq xo'jaligi ekinlari) asosida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishni boshlagan edi.

Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, hozirgi kunda Yevropada bioiqtisodiyot bozori 2 trillion yevrodan ortiq hajmga ega bo'lib, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, oziq-ovqat va kimyo sanoati hamda ekologik toza energiya ishlab chiqarish sohalarida Yevropa Ittifoqi mehnat bozorining qariyb 9 foizini tashkil etuvchi 22 million ish o'rnini yaratmoqda.

Yashil iqtisodiyotning asosiy jihatlaridan biri – bu atrof-muhitga va uning degradatsiyasiga xavflarni sezilarli darajada kamaytirishdir. Hozirgi kunda insoniyatning tabiat qonunlari va ekologik xavf-xatarlar haqidagi bilimlari yetarli emasligi, sayyorada ekologik inqiroz kuchayishiga olib kelmoqda.

Xalqaro hujjatlarda ekologik xavfni kamaytirish ehtiyojlari “ehtiyotkorlik tamoyili” asosida talqin qilinadi. Bu tamoyil, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ekologik oqibatlarining oldini olish uchun iqtisodiy faoliyatda ehtiyotkor yondashuv zarurligini bildiradi. Mazkur tamoyil tibbiyotdagi “zarar yetkazma” prinsipiga o'xshaydi. U ko'plab xalqaro hujjatlarda, jumladan, Bregel Yevropa deklaratsiyasi (1990-yil), Rio deklaratsiyasi (15-tamoyil) (1992-yil), Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiya (1992-yil) va BMT hamda IHTT hujjatlarida aks etgan.



Mazkur mafkuraviy yo'nalishda global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha eng muhim xalqaro kelishuvlardan biri Kioto protokoli (1997-yil) bo'lib, u ko'plab davlatlar uchun issiqxona gazlari chiqindilarini tartibga soluvchi va cheklovchi mexanizmlarni belgilagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida men chuqur hurmat qiladigan mashhur amerikalik olim Barri Kommoner tomonidan ilgari surilgan "ekologiya qonunlari"ni keltirmoqchiman. Sababi, ushbu qonunlar bugungi kunda ham yashil iqtisodiyotni mamlakatimizda shakllantirish va barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirishda dolzarbligini yo'qotmagan.

Barri Kommonerning ekologiya qonunlari quyidagilardan iborat:

1. Hamma narsa hamma narsaga bog'liq.

Ekotizimlar o'zaro bog'liq bo'lgan ko'plab qismlardan tashkil topgan bo'lib, ulardan biridagi o'zgarish boshqasiga bevosita ta'sir qiladi. Tabiiy tizimlar o'z-o'zini muvozanatlashtirishga qodir bo'lsa-da, ularning bu xususiyatlari haddan tashqari tashqi yuklama ostida izdan chiqishi mumkin.

2. Hamma narsa qaergadir ketishi kerak.

Bu ibora fizikadagi asosiy qonun – moddaning yo'qolmasligi prinsipining ekologik ifodasidir. Tabiatda "axlat" degan tushuncha yo'q: bir organizm chiqindisi boshqasining ozuqasiga aylanadi. Bugungi ekologik inqirozning asosiy sababi shundaki, inson yer ostidan juda katta miqdorda modda olib, uni sun'iy shakllarga aylantirib, atrof-muhitga chiqaradi. Bu esa bu birikmalar bo'lmasligi kerak bo'lgan joylarda to'planib, ekologik muvozanatga zarar yetkazadi.

3. Tabiat yaxshiroq biladi.

Insoniyat texnologiyalarni ishlab chiqishda tabiatni takomillashtirish mumkin deb o'ylaydi. Ya'ni, tabiiy tizimlar bera olmaydigan tovar va xizmatlarni yaratishga urinishadi. Biroq tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ekotizimlarning keskin antropogen o'zgarishlarga uchrashi ularning yemirilishiga olib keladi. Tabiiy jarayonlarga aralashish har doim ham foyda bermaydi.

4. Hech narsa tekin emas.

Ekologiya va iqtisodiyotda har qanday resurs qiymatga ega. Insoniyat global ekotizimdan oladigan har qanday foyda yoki mahsulot mehnat bilan qayta to'lanishi kerak. Aks holda bu tabiiy resurslarning tanazzuliga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vernadskiy V.I. Biosfera va noosfera. M.: Ayris-Press, 2004. – 576 b.
2. Bobilev S.N., Zaxarov V.M. Inqiroz: iqtisodiyot va ekologiya. M.: Institut ustoychivogo razvitiya / Sentr ekologicheskoy politiki Rossii, 2009. – 84 b.
3. Bobilev S.N., Zaxarov V.M. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va barqaror rivojlanish. Moskva: Ekonomika, 2011. – 295 b.
4. Bobilev S.N., Zaxarov V.M. "Yashil" iqtisodiyot va modernizatsiya. Ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish asoslari. // Na puti k ustoychivomu razvitiyu Rossii. №60. 2012. – 90 b.
5. Kelajak – biz xohlagan kelajak. BMT konferensiyasining yakuniy hujjati. Rio-de-Janeyro, 2012. [Elektron resurs]. Murojaat manzili: <http://www.uncsd2012.org/>
6. Vayszekker E., Xargrouz K., Smit M. Besh omil. Barqaror o'sish formulasi: Rim klubiga hisobot. M.: AST-Press Kniga, 2013.
7. Bobilev S.N., Zaxarov V.M. Ekologiya va iqtisodiyot. "Yashil" iqtisodiyot. Inson va tabiat. M.: Moskva sh. Tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish departamenti / IBR RAN huzuridagi Barqaror rivojlanish va salomatlik markazi / Rossiya ekologik siyosati markazi, 2015. – 98 b.
8. Bobilev S.N., Zaxarov V.M. Ekotizim xizmatlari va iqtisodiyot. M.: Institut ustoychivogo razvitiya / Sentr ekologicheskoy politiki Rossii, 2019. – 72 b.
9. Vaxobov A.V. "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini amalga oshirishning xorijiy tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari. // "Yashil iqtisodiyot" rivojlanishining jahon tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – Toshkent: "Universitet", 2019. – 142 b. (4–13-betlar).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>